2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

UDK: 636.2.034

ISSIQ IQLIM SHAROITIDA OZIQLANTIRISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA QIZIL CHOʻL ZOTLI QORAMOLLARNING MAHSULDORLIGINI OSHIRISH

B. Sh. Boybulov q.x.f.n., katta ilmiy xodim,

N. Xoliqov, M.Buxarova laborantlar,

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti,

Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasi

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311104

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
498–500

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Boybulov B.Sh., Xoliqov N., Buxarova M. Issiq iqlim sharoitida oziqlantirishning samarali texnologiyalari asosida qizil choʻl zotli qoramollarning mahsuldorligini oshirish // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 498–500. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311104

ANNOTATSIYA *Olib borilgan tadqiqotlarda ilk bor oziqlantirishning samarali texnologiyalaridan foydalanib, qizil choʻl zotiga mansub boʻlgan sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda hamda ularning avlodlarini parvarishlashda mahalliy va biologik faol qoʻshimcha va ideal ozuqalardan foydalanib, intensiv oʻstirib, ulardan yuqori mahsulot olish boʻyicha izlanishlar olib borildi, hamda fermer xoʻjaliklari sharoitida naslchilik-seleksiya ishlarini kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatdi.*

KALIT SOʻZLAR *Sigir, buzoq, mahsudorlik, qizil choʻl, sut, mahsulot, ozuqa, poda.*

ABSTRACT *The present study investigated the use of effective feeding technologies to increase milk productivity in cows of the Red Steppe breed and to improve the rearing of their offspring. Particular attention was paid to the use of locally available feed additives, biologically active supplements, and balanced feed formulations to promote intensive growth and achieve high productivity in young cattle. The findings demonstrated that strengthening breeding and selection practices under farm conditions is of significant scientific and practical importance.*

KEYWORDS *Cow, calf, productivity, Red Steppe breed, milk, production, feed, herd.*

АННОТАЦИЯ *В проведённых исследованиях впервые были изучены эффективные технологии кормления, направленные на повышение молочной продуктивности коров красной степной породы и совершенствование выращивания их потомства. Особое внимание уделялось использованию местных кормовых добавок, биологически активных добавок и полноценных кормовых рационов для обеспечения интенсивного роста молодняка крупного рогатого скота и получения от него высокой продуктивности. Результаты исследований показали, что усиление племенной и селекционной работы в условиях фермерских хозяйств имеет важное научное и практическое значение.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА *Корова, телёнок, продуктивность, красная степная порода, молоко, продукция, корм, стадо.*

Respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga oshib borayotgan ehtiyojini qondirish chorvachilikni yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa oʻz navbatida chorva

mollarining nasl, mahsuldorlik, pushtdorlik va boshqa seleksiya belgilarini takomillashtirish soha oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Ilmiy-tajribalar Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi “Yurt rizqi-naslchilik” MCHJning qoramolchilikka ixtisoslashgan fermasida bajariladi. Tajriba uchun qizil choʻl zotli yuqori laktatsiyadagi (n=40) sigirlar va ularning avlodlarida olib borilmoqda. Bajarilishi rejalashtirilayotgan mavzu chorvachilikni rivojlantirish yechimiga bagʻishlangan boʻlib, Ilk bor oziqlantirishning samarali texnologiyasidan foydalanib, qizil choʻl zotiga mansub boʻlgan sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda hamda ularning avlodlarini parvarishlashda mahalliy va biologik faol qoʻshimcha “vilofoss” va “ideal ozuqa” lardan foydalanib, intensiv oʻstirib, ulardan yuqori mahsulot olish boʻyicha izlanishlar olib borilmoqda. Tajriba olib borilayotgan xoʻjalikda tajriba guruhlari shakllantirilib, qizil choʻl zotli sigirlarning tirik vazni, eksterer koʻrsatkichlari aniqlandi. Tajribadagi sigirlar yuqori sifatli mahalliy va xorijiy ozuqalar bilan oziqlantirilmoqda. Bu esa ulardan yuqori sut mahsulotlarini olishga imkoniyat yaratadi. Tadqiqotlarning amalga oshirish jarayonida qoramollarning toʻlaqiymatli oziqlantirish boʻyicha samarali texnologiya ishlab chiqishga asos yaratilmoqda. Tajribadagi qoramollarning quyidagi asosiy seleksiya belgilari aniqlanadi, tajribadagi qoramollarning nasli, kelib chiqishi boʻyicha naslchilik hujjatlari asosida aniqlandi. Tajribadagi qoramollarning ekstererini ya’ni, 7 ta tana oʻlchamini: yagʻrin balandligi, koʻkrak eni, koʻkrak aylanasi, orqa doʻng suyak eni, tanasining qiya uzunligi, koʻkrak chuqurligi va poycha aylanasini oʻlchash va ular asosida tana indekslarini hisoblab chiqish orqali aniqlandi. Tajriba oʻtkazish uchun qizil choʻl zotli sigirlarning 4 ta guruh (n=40) avlodlarini xoʻjalik foydali belgilari oʻrganilmoqda. Ilmiy-tadqiqotlar natijasida tajriba guruhlaridagi sigirlarning sut mahsuldorlik hamda boshqa xoʻjalik foydali belgilari boʻyicha qizil choʻl zotli qoramollarning zot andozasi talablaridan 10-15 % ga yuqori boʻlgan sermahsul sigirlar podasi yaratildi. Ilk bor oziqlantirishning samarali texnologiyasidan foydalanib, qizil choʻl zotiga mansub boʻlgan sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda hamda ularning avlodlarini parvarishlashda mahalliy va biologik faol qoʻshimcha “vilofoss” va “ideal ozuqa” lardan foydalanib, intensiv oʻstirib, ulardan yuqori mahsulot olish boʻyicha izlanishlar olib borildi. Tajribadagi sigirlardan olingan avlodlarini intensiv oʻstirishning samarali usuli ishlab chiqildi hamda yuqori mahsuldorlikka ega qizil choʻl zotli podani toʻldiruvchi yosh mollarning guruhlari shakllantirildi. Bunda yosh mollar optimal darajada zaruriy vitaminlar, minerallar va mikroelementlar bilan ta’minlandi, bu energiya almashinuvi tizimini yaxshilaydi, yosh mollar sogʻligi mustahkamlanib, ozuqaviy moddalar yetishmovchiligini bartaraf etdi hamda yosh mollarni oʻsish va rivojlanishini yuqori darajada oshirdi. Bu esa ulardan yuqori sut mahsulotlarini olishga imkoniyat yaratadi. Tajribadagi qizil choʻl zotli sigirlarninig laktatsiyadagi sut mahsuldorligi podaga nisbatan 13-15 % ga oshirishga erishildi. Tajriba guruhlaridagi sigirlardan olingan avlodlariga yaxshi asrash va oziqlantirish sharoitlarini yaratish orqali oʻsish va rivojlanish koʻrsatkichlari yaxshilandi. Bunda tajriba guruhlaridagi yosh mollarning tirik vazni, tengqurlariga nisbatan 10-12% ga oshirildi. Tadqiqotlarning amalga oshirish jarayonida qoramollarning toʻlaqiymatli oziqlantirish boʻyicha samarali texnologiya ishlab chiqishga asos yaratildi. Tajribadagi qizil choʻl zotli yosh mollarning tana oʻlchamlari va tirik vazni hamda tana indekslarini hisoblab chiqish maqsadga muvofiq. Tadqiqotlar natijalaridan koʻrinib turibdiki, Respublikamizning issiq iqlim sharoitida urchitilayotgan qizil choʻl zotli qoramollar avlodlari sut yoʻnalishdagi

xiliga mansub ekanligidan dalolat beradi. Tadqiqotlardan olingan natijalar, "Yurt rizqi-naslchilik" MCHJning qoramolchilik fermasida, qizil choʻl zotli qoramollar avlodlarining mahsuldorligini oshirish usulini joriy etishni keng targʻib qilish maqsadida janubiy hududlardagi qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklarining qizil choʻl zotli qoramollar urchitilayotgan naslchilik fermalarida joriy etilmoqda. Tadqiqotlardan olingan maʼlumotlar koʻrsatishicha, tajriba guruhlaridagi sigirlardan olingan avlodlarining eksteryer koʻrsatkichlarini aniqlash ularni yuqori irsiy imkoniyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Tajriba guruhlaridagi sigirlardan yuqori nasl qiymatiga ega sermahsuldor sigirlar podasini joriy etish ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarda qoramollarning bir tana oʻlchamini, ikkinchi bir tana oʻlchamiga nisbatan foizdagi ifodasini hisoblab chiqish yoʻli bilan tana indekslari hisoblab chiqildi. Maʼlumki, qishloq xoʻjalik hayvonlarining tana oʻlchamlari boʻyicha ularga toʻliq tavsif berib boʻlmaydi. Shuning uchun, biz amaliyotda koʻp qoʻllaniladigan tana tuzilish indeksini hisoblab chiqib oʻrgandik. Indeks – bu bir tana oʻlchamini ikkinchi bir tana oʻlchamiga boʻlgan nisbatini foizda ifodalanishidir. Tadqiqotlardan olingan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, tajriba guruhlaridagi sigirlardan olingan barcha guruhlardagi yosh mollarning tana indekslarini taqqoslash natijasida maʼlum oʻzgarishlar, yaʼni farqlar koʻzga tashlangan boʻlsada, ular mutanosib tana tuzilishga ega boʻldilar. Bu esa, zotli qoramollar avlodlarining xoʻjalik foydali belgilarini takomillashtirish va yuqori mahsuldor podalarini yaratish maqsadga muvofiq ekanligini koʻrsatdi. Zootexniyada yosh mollarning oʻsish va rivojlanishiga baho berishda kunlik, mutlaq va nisbiy oʻsish koʻrsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarda olingan maʼlumotlar, tajriba guruhlaridagi sigirlar mahsuldorligi hamda ulardan olingan avlodlarining oʻsish va rivojlanishi boʻyicha yuqori irsiy imkoniyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Kelgusida ushbu guruhlardagi sigirlardan yuqori nasl qiymatiga ega podani toʻldiruvchi yosh buzoqlarni olish maqsadida mollarning tana tuzilishini hisobga olgan holda juftlash ishlari tashkil etildi. Qoramollarni bunday juftlash natijasida olinayotgan podani toʻldiruvchi yosh mollarni maqsadga muvofiq oʻstirish tashkil etilib borilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlarda issiq iqlim sharoitida oziqlantirishning samarali texnologiyalar asosida tajribadagi sigirlarga mahalliy ozuqalarni, biologik faol qoʻshimchalar bilan aralashma holda berish tavsiya etiladi. Tajribalar natijasida ilk bor oziqlantirishning samarali texnologiyalaridan foydalanib, qizil choʻl zotiga mansub boʻlgan sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda hamda ularning seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilashni amaliyotda joriy etish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirov.M.I., Karibayev.Q.Q., Karibayeva.D.Q. Oʻzbekistondagi asosiy ozuqalarning toʻyimlilik qiymati. 2000 yil, 8-15 betlar. 2. Shukurov Y, Otamurodov N., Chorva qishloviga mustahkam ozuqa. "Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi" 2011-yil, 8-son, 13-bet. 3. Qoʻldoshev O.U., Isayev.M.T. Sigirlardan buzoq olishni koʻpaytirish omillari. Veterinariya tibbiyoti jurnali, 2018 yil, 6-son 32-33-betlar. 4. B.Boybulov va boshqalar."Qoramolchilikda sogʻin sigirlarni parvarishlash va sutni qayta ishlash texnologiyalari", Qarshi-2022 yil. Qoʻllanma. 100-bet. 5. Nosirov U.N., Maqsudov I., Dosmuhamedov M.X., "Oʻzbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari", Toshkent-2011 yil, 20-23 betlar. 6. Kariboyev K.K., Gʻulomqodirov Q., Yoʻldoshev D., Jamolova D. Boʻgʻoz va sogʻin sigirlar ratsionida protein va energiya darajasining sut mahsuldorligiga taʼsiri // OʻzCHITI ilmiy ishlar toʻplami. Toshkent, 1994. 78-82 b.